O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Tohir Aripov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbir o‘tkazildi

Fanlar akademiyasida biofizika sohasidagi yetuk olim, akademik Aripov Tohir Fatixovich tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Hukumat vakillari ishtirokida tantanali tadbir o‘tkazildi.
Tadbirda akademiklar, taniqli davlat va jamoat arboblari, oliy ta’lim muassasalari vakillari, talabalar va olimning shogirdlari ishtirok etdi.
Tadbirni O‘zR FA birinchi vitse-prezidenti-bosh ilmiy kotib, akademik Shomansur Sagdullayev tantanali tadbirni ochib berdi. U o‘z nutqida so‘nggi yillarda o‘zbek ilm-faniga berilayotgan e’tibor haqida gapirib o‘tdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisi Xayriddin Sultonov Davlatimiz Rahbarining tabrigini hamda akademikni ko‘p yillik samarali mehnati, xususan, biofizika yo‘nalishidagi fundamental tadqiqotlari bilan ko‘plab muhim ixtirolar, ilg‘or innovatsion g‘oyalarni muvafaqqiyatli amalga oshirishga qo‘shgan katta hissasi, iqtidorli yosh olimlarni tayyorlash, navqiron avlodni vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, istiqlol g‘oyasiga sadoqat ruhida tayyorlashdagi ibratli faoliyati hamda tavalludining 80 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan mukofotlanlash to‘g‘risidagi Farmonini o‘qib eshittirdi.

O‘zbekisto
Fanlar
ak
Aripov T
80

Aripov Taxir Fat
80 yoshda

Tantanali tadbirda so‘zga chiqqanlar olimning ilmiy ishlari, o‘zbek ilm-faniga, biofizika sohasiga qo‘shgan hissasini alohida e’tirof etishdi. Olimni qutlug‘ 80 yoshi hamda Davlatimiz Rahbarining yuksak mukofoti bilan qutladilar. Akademik T.Aripovga uzoq umr, mustahkam sog‘lik, ilmiy faoliyatlarida muvafaqqiyatlar tiladilar.